


## QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020- yil yanvar- dekabr oylari uchun dastlabki ma'lumot)

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiya langan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2020- yilning yanvar-dekabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **544,2** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan **280,6** mln. AQSh dollariga yoki **34,0 %** ga kamaydi.




*Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinnarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinnarda – XSST) ishlatalidi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

TSA da eksport hajmi **196,5** mln. AQSh dollariga (**46,3** % ga kamaydi) va import hajmi **347,7** mln. AQSh dollariga (**24,2** % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – **151,2** mln. AQSH dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.




**QASHQADARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR  
(2020- yil yanvar-dekabr, ming AQSh dollari, ulushi, % da)**



Qashqadaryo viloyati, jahoning 70 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (21,5 %), Rossiya Federatsiyasida (20,0 %), Turkiyada (9,6 %), Qozog'istonda (8,5 %), Germaniyada (7,6 %), Eron (6,7 %) va Hindiston (2,8 %) qayd etilgan.



**QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI  
OYLIK DINAMIKASI  
(mln. AQSH dollar)**



Tashqi savdo aylanmasi hajmi 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida **544,2** mln. AQSH dollarini tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **34,0 %** ga kamaydi.

Tashqi savdo aylanmasi infografikasining ko'rsatkichlarini oylar kesimida tahlil qilsak, 2019- yilning fevral oyida bir oz pasayishdan so'ng, oylik barqaror o'sish kuzatilganini ko'rish mumkin.

2020- yilda eng katta pasayish yanvar-dekabr oylarida **544,2** million AQSH dollari ko'rsatkichida qayd etildi. O'tgan yilning shu oyiga nisbatan tashqi savdo aylanmasining kamayishi **280,6** million AQSH dollarini tashkil qildi.



CIF


COST, INSURANCE AND FREIGHT

PORT OF DESTINATION

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzlusiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'mini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'ngi uch yilda TSA Qirg'iz, Tojikiston Respublikalari va Afg'oniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoxda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya va Qozog'iston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan **9** ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Eron (**33 949,8** ming AQSH dollar), Qozog'iston (**15 234,9** ming AQSH dollar), Afg'oniston (**8 535** ming AQSH dollar), Pokiston (**8 358,5** ming AQSH dollar), Qirg'iz Respublikasi (**8 121,9** ming AQSH dollar), Indoneziya (**5 997,0** ming AQSH dollar), Tojikiston (**3 844,6** ming AQSH dollar), Turkiya (**1 979** ming AQSH dollar) va Ukraina (**596,8** ming AQSH dollar) shular jumlasidandir. Qolgan 11 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



**QASHQADARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR  
BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**  
*(yanvar-dekabr, ming AQSH dollarri)*

| Davlat nomi                    | 2018- yil        | 2019- yil        | 2020- yil        |
|--------------------------------|------------------|------------------|------------------|
| <b>Xitoy Xalq Respublikasi</b> | <b>147 420,7</b> | <b>216 683,3</b> | <b>117 196,4</b> |
| Eksport                        | 65 834,8         | 47 442,8         | 17 549,8         |
| Import                         | 81 585,9         | 169 240,5        | 99 646,6         |
| Saldo                          | - 15 751,1       | - 121 797,8      | - 82 096,8       |
| <b>Rossiya Federatsiyasi</b>   | <b>82 245,1</b>  | <b>82 666,6</b>  | <b>109 059,8</b> |
| Eksport                        | 36 116,0         | 37 480,9         | 30 893,4         |
| Import                         | 46 129,1         | 45 185,7         | 78 166,4         |
| Saldo                          | - 10 013,1       | - 7 704,9        | - 47 273,0       |
| <b>Turkiya</b>                 | <b>53 315,7</b>  | <b>77 452,7</b>  | <b>52 281,5</b>  |
| Eksport                        | 29 985,4         | 61 906,6         | 27 130,6         |
| Import                         | 23 330,3         | 15 546,1         | 25 150,9         |
| Saldo                          | 6 655,2          | 46 360,5         | 1 979,7          |
| <b>Qozog'iston</b>             | <b>46 600,0</b>  | <b>78 046,0</b>  | <b>46 410,7</b>  |
| Eksport                        | 29 350,2         | 44 114,4         | 30 822,8         |
| Import                         | 17 249,8         | 33 931,6         | 15 587,9         |
| Saldo                          | 12 100,5         | 10 182,9         | 15 234,9         |
| <b>Germaniya</b>               | <b>9 938,5</b>   | <b>23 169,3</b>  | <b>41 416,6</b>  |
| Eksport                        | 3,9              | 9,2              | 84,2             |
| Import                         | 9 934,7          | 23 160,1         | 41 332,4         |
| Saldo                          | - 9 930,8        | - 23 150,9       | - 41 248,2       |
| <b>Eron</b>                    | <b>16 704,2</b>  | <b>69 601,7</b>  | <b>36 513,3</b>  |
| Eksport                        | 14 937,8         | 66 399,9         | 35 231,6         |
| Import                         | 1 766,3          | 3 201,8          | 1 281,8          |
| Saldo                          | 13 171,5         | 63 198,2         | 33 949,8         |



| <b>Davlat nomi</b>          | <b>2018- yil</b> | <b>2019- yil</b> | <b>2020- yil</b> |
|-----------------------------|------------------|------------------|------------------|
| <b>Hindiston</b>            | <b>6 080,4</b>   | <b>5 281,2</b>   | <b>15 125,3</b>  |
| Ekspорт                     | 249,4            | 400,7            | 2 516,1          |
| Import                      | 5 831,0          | 4 880,6          | 12 609,2         |
| Saldo                       | - 5 581,7        | - 4 479,9        | - 10 093,2       |
| <b>AQSH</b>                 | <b>5 684,1</b>   | <b>9 519,8</b>   | <b>12 528,5</b>  |
| Ekspорт                     | 30,0             | 23,3             | 40,7             |
| Import                      | 5 654,1          | 9 496,5          | 12 487,8         |
| Saldo                       | - 5 624,1        | - 9 473,2        | - 2 447,1        |
| <b>Qirg'iz Respublikasi</b> | <b>3 778,2</b>   | <b>10 730,7</b>  | <b>12 271,2</b>  |
| Ekspорт                     | 2 607,1          | 10 583,4         | 10 196,6         |
| Import                      | 1 171,2          | 147,3            | 2 074,6          |
| Saldo                       | 1 435,9          | 10 436,1         | 8 121,9          |
| <b>Yaponiya</b>             | <b>16 345,1</b>  | <b>6 277,8</b>   | <b>8 789,6</b>   |
| Ekspорт                     | 36,2             | 46,9             | 719,5            |
| Import                      | 16 308,9         | 6 230,9          | 8 070,1          |
| Saldo                       | - 16 272,7       | - 6 184,0        | - 7 350,6        |
| <b>Afg'oniston</b>          | <b>9 009,6</b>   | <b>29 645,6</b>  | <b>8 666,9</b>   |
| Ekspорт                     | 9 009,6          | 29 615,2         | 8 601,3          |
| Import                      | -                | 30,3             | 65,6             |
| Saldo                       | 9 009,6          | 29 584,9         | 8 535,7          |
| <b>Pokiston</b>             | <b>6 409,7</b>   | <b>16 318,0</b>  | <b>8 644,0</b>   |
| Ekspорт                     | 5 664,5          | 15 877,4         | 8 501,2          |
| Import                      | 745,2            | 440,6            | 142,7            |
| Saldo                       | 4 919,4          | 15 436,8         | 8 358,5          |
| <b>Turkmaniston</b>         | <b>4 019,6</b>   | <b>8 307,3</b>   | <b>6 569,0</b>   |
| Ekspорт                     | 476,6            | 731,4            | 3 236,9          |
| Import                      | 3 543,0          | 7 575,9          | 3 332,1          |
| Saldo                       | - 3 066,4        | - 6 844,6        | - 95,2           |

| <b>Davlat nomi</b>         | <b>2018- yil</b> | <b>2019- yil</b> | <b>2020- yil</b> |
|----------------------------|------------------|------------------|------------------|
| <b>Indoneziya</b>          | <b>29 507,8</b>  | <b>15 028,9</b>  | <b>5 997,6</b>   |
| Eksport                    | 29 507,8         | 14 996,9         | 5 997,3          |
| Import                     | -                | 32,0             | 0,3              |
| Saldo                      | 29 507,8         | 14 964,9         | 5 997,0          |
| <b>Belarussiya</b>         | <b>1 557,0</b>   | <b>6 292,3</b>   | <b>5 750,7</b>   |
| Eksport                    | 379,4            | 424,0            | 256,9            |
| Import                     | 1 177,6          | 5 868,2          | 5 493,8          |
| Saldo                      | - 798,2          | - 5 444,2        | - 5 236,9        |
| <b>Tojikiston</b>          | <b>33 207,5</b>  | <b>19 451,5</b>  | <b>5 294,0</b>   |
| Eksport                    | 31 427,7         | 18 381,9         | 4 569,3          |
| Import                     | 1 779,8          | 1 069,5          | 724,7            |
| Saldo                      | 29 648,0         | 17 312,4         | 3 844,6          |
| <b>Avstraliya</b>          | <b>2,8</b>       | <b>990,9</b>     | <b>4 987,8</b>   |
| Eksport                    | 1,6              | 1,4              | 0,0              |
| Import                     | 1,1              | 989,5            | 4 987,8          |
| Saldo                      | 0,5              | - 988,1          | - 4 987,8        |
| <b>Fransiya</b>            | <b>3 527,6</b>   | <b>6 229,1</b>   | <b>4 671,0</b>   |
| Eksport                    | 11,1             | 3,2              | 0,1              |
| Import                     | 3 516,5          | 6 225,9          | 4 670,9          |
| Saldo                      | - 3 505,4        | - 6 222,7        | - 4 670,8        |
| <b>Italiya</b>             | <b>22 182,8</b>  | <b>2 431,6</b>   | <b>4 271,7</b>   |
| Eksport                    | 3,1              | 1,8              | 0,0              |
| Import                     | 22 179,7         | 2 429,9          | 4 271,7          |
| Saldo                      | - 22 176,6       | - 2 428,1        | - 4 271,7        |
| <b>Koreya Respublikasi</b> | <b>186 683,7</b> | <b>34 804,9</b>  | <b>4 266,3</b>   |
| Eksport                    | 3 149,3          | 1 352,0          | 26,8             |
| Import                     | 183 534,4        | 33 452,9         | 4 239,5          |
| Saldo                      | - 180 385,1      | - 32 100,8       | - 4 212,8        |



**QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKLATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI**  
*(yanvar-dekabr, ming AQSH dollarri, ulushi, % da)*

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar o'z samarasini ko'rsatmoqda, 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **13,7 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2018- yilga nisbatan ulushi **1,9 %** ga kamaydi.



Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 2018- yilning shu davriga nisbatan kamaydi va jami TSA dagi ulushi **70,1 %** ni tashkil etdi.

## QASHQADARYO VILOYATINING EKSPORTI (2020- yil yanvar-dekabr)


Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning eksportyorlari soni **236** tani tashkil etib, ular tomonidan **196,5** mln. AQSH dollarini (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2019- yilning mos davriga nisbatan **46,3** % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,2 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**32,5** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**23,5** %), yoqilg'i tashqari, nooziq-ovqat xomashyosi (**22,1** %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**15,0** %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**0,7** %), turli xil tayyor mahsulotlar (**2,3** %), hayvon va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar (**1,3** %), mashina va transport uskunalar (**0,6** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.






**QASHQADARYO VILOYATINING EKSPORTI OYLIK DINAMIKASI**  
(mln. AQSh dollar)



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida eksport hajmi **196,5** million AQSH dollarini tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **46,3 %** ga kamaydi.

Eksport hajmining dinamikasi shuni ko'rsatadiki, 2020- yilning birinchi choragida uning hajmi **60,0** million AQSH dollarini tashkil etdi. Ikkinci chorakda **47,2** mln. AQSH dollarini tashkil etib, uchinchi chorakda ushbu ko'rsatkich 14,1 mln. AQSH dollarga kapayib, **61,3** mln. AQSH dollarga etdi. IV chorakda **28,0** mln. AQSH tashkil etdi.




**MDH VA BOSHQA XORIJUY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI  
(2020- yil yanvar-noyabr)**

| XSST tarkibi   | Jami               |                             |                               | MDH davlatlari     |                             |                               | Boshqa davlatlar   |                             |                               |
|--|--------------------|-----------------------------|-------------------------------|--------------------|-----------------------------|-------------------------------|--------------------|-----------------------------|-------------------------------|
|  | ming AQSH dollarri | O'tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmiga nisbatan, % da | ming AQSH dollarri | O'tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmiga nisbatan, % da | ming AQSH dollarri | O'tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmiga nisbatan, % da |
| Jami eksport   | 196 456,4          | 53,7                        | 100,0                         | 83 530,1           | 71,2                        | 100,0                         | 11 2926,4          | 45,4                        | 100,0                         |
| <b>shu jumladan:</b>   |                    |                             |                               |                    |                             |                               |                    |                             |                               |
| Oziq-ovqat va tirik hayvonlar                                    | 45 745,6           | 49,9                        | 23,3                          | 33 958,1           | 89,6                        | 40,7                          | 11 787,5           | 22,0                        | 10,4                          |
| Ichimliklar va tamaki  | 464,9              | 84,9                        | 0,2                           | 456,6              | 83,4                        | 0,5                           | 8,3                | 0,0                         | 0,0                           |
| Yoqilg'i tashqari, nooziq-ovqat xomashyosi                       | 43 354,8           | 54,2                        | 22,1                          | 1 193,6            | 135,0                       | 1,4                           | 42 161,2           | 53,3                        | 37,3                          |
| Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar | 1441,4             | 4,8                         | 0,7                           | 179,0              | 1,4                         | 0,2                           | 1 262,3            | 7,2                         | 1,1                           |
| Hayvon va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar                    | 2 597,6            | 89,6                        | 1,3                           | 351,0              | 12,1                        | 0,4                           | 2 246,6            | 0,0                         | 2,0                           |
| Kimyoiy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar                  | 29 562,7           | 43,2                        | 15,0                          | 21 863,1           | 53,1                        | 26,2                          | 7 699,6            | 28,2                        | 6,8                           |
| Sanoat tovarlari   | 63 903,7           | 77,3                        | 32,5                          | 18 139,4           | 124,7                       | 21,7                          | 45 764,3           | 67,2                        | 40,5                          |
| Mashina va transport uskunalarini                                | 1 143,7            | 77,3                        | 0,6                           | 1 110,9            | 163,0                       | 1,3                           | 32,8               | 4,1                         | 0,0                           |
| Turli xil tayyor mahsulotlar                                     | 4 424,2            | 396,4                       | 2,3                           | 4 176,6            | 381,6                       | 5,0                           | 247,5              | 1 154,1                     | 0,2                           |
| Xizmatlar  | 3 817,8            | 54,2                        | 2,0                           | 2 101,6            | 43,6                        | 2,6                           | 1 716,2            | 77,0                        | 1,7                           |

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga to'g'ri kelmoqda, eksport hajmi bo'yicha keyingi o'rnlarda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar, sanoat tovarlari va turli xil tayyor buyumlarga to'g'ri kelmoqda.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan, turli xil tayyor mahsulotlardan tashqari barcha tovar guruhlarida kamayish kuzatildi.


**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI  
(yanvar-dekabr, % da)**

| XSST tarkibi   | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|--|-----------|-----------|-----------|
| Jami   | 100,0     | 100,0     | 100,0     |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar                                       | 10,9      | 25        | 23,3      |
| Ichimliklar va tamaki  | 0,1       | 0,1       | 0,2       |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari                                      | 20        | 21,9      | 22,1      |
| Mineral yoqilg'i, yog 'lash moylari va shunga o'xshash materiallar               | 11,2      | 8,3       | 0,7       |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar                      | 0         | 0,8       | 1,3       |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 25,2      | 18,7      | 15        |
| Sanoat tovarlari   | 28,8      | 22,6      | 32,5      |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalar  | 0         | 0,4       | 0,6       |
| Turli xil tayyor buyumlar  | 0,3       | 0,3       | 2,3       |
| Xizmatlar  | 3,5       | 1,9       | 2,0       |



**XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR  
EKSPORTI TARKIBI  
(2020- yil yanvar-dekabr)**


| XSST bo'limi nomi   | Ming AQSh dollarri | 2019- yilning mos davriga nisbatan, % da |
|---|--------------------|--|
| <b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>                                       |                    |  |
| Sabzavotlar va mevalar  | 43 388,1           | 75,1                                     |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar                                       | 13 00,1            | 24,4                                     |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar                       | 312,1              | 1,1                                      |
| Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari  | 138,7              | 47,9                                     |
| Shakar, shakar mahsulotlari va asal   | 183,1              | 4,6 m.                                   |
| <b>Ichimliklar va tamaki</b>  |                    |  |
| Ichimliklar   | 458,0              | 89,4                                     |
| Tamaki va tamaki mahsulotlari   | 6,9                | -  |
| <b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'iidan tashqari</b>                                     |                    |  |
| To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari   | 36 056,6           | 48,5                                     |
| Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari                         | 4 869,8            | 2,4 m.                                   |
| O'g'itlar uchun hom-ashyo   | 1 065,1            | 37,1                                     |
| Moy olinadigan urug'lar va mevalar  | 1 362,7            | 168,8                                    |
| <b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>                |                    |  |
| Elektr toki   | 1 260,8            | 164,5                                    |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar                                | 180,6              | 8,8                                      |
| <b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>                      |                    |  |
| O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)                      | 2 597,6            | 89,6                                     |
| <b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b> |                    |  |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar   | 21 940,5           | 53,5                                     |
| O'g'itlar   | 7 436,8            | 27,1                                     |
| Bo'yoqlar, lakkalar va shunga o'xshash materiallar                                      | 114,1              | -  |
| Birlamchi bo'limgan plastik   | 30,5               | 64,0 m.                                  |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy moddalar va mahsulotlar                            | 20,2               | 0,0                                      |
| <b>Sanoat tovarlari</b>   |                    |  |
| To'qimachilik yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar    | 58 643,73          | 76,1                                     |
| Rangli metallar   | 21,6               | -  |
| Teri, tayyor charm buyumlar, masalan, mo'ynalar   | 4 363,3            | 80,4                                     |

|   |         |         |
|---|---------|---------|
| Metalldan tayyorlangan buyumlar                                       | 217,4   | 23,0 м. |
| Chuyan va pulat   | 292,3   | 2,8 м.  |
| <b>Mashinalar va transport asbob-uskunalarini</b>                     |         |         |
| Avtomobillar  | 15,9    | 3,0     |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyoj qismlari | 637,2   | 129 м.  |
| Sanoat uchun maxsus bo'limgan mashinalar va ularning detallari        | 419,8   | 49,6    |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljalangan mashinalar                     | 31,1    | 33,8    |
| <b>Turli xil tayyor buyumlar</b>                                      |         |         |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari                                 | 2 944,0 | 2,7 м.  |
| Poyabzal  | 298,0   | -       |
| Har xil tayyor buyumlar   | 1 073,7 | 2025 м. |
| Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari                     | 94,5    | 7,1 м.  |

So'ngi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi ko'paydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2018- yilning yanvar-dekabridagi **37,7 %** dan 2020- yilning yanvar-dekabrida **42,5 %** ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **57,5 %** ni tashkil etdi.



**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar-dekabr, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2020- yilning yanvar-dekabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Eron (eksport umumiy hajmining 18,2 i %), Eron (**17,9 %**) Qozog'iston (**15,7 %**), Rossiya Federatsiyasi (**15,7 %**), Turkiya (**13,8 %**), Xitoy Xalq Respublikasi (**8,9 %**) va Qirg'iz Respublikasi (**5,2 %**) va Afg'oniston (**4,4 %**), davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi **81,6** foizni tashkil etmoqda.



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, o'tgan yildagi kabi tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Eron yetakchi mavqeini saqlab turibdi. Keyingi holatda Qozog'iston egalladi. Rossiya Federatsiyasidan ozgina ortda qolgan Turkiya uchinchi pog'onadan to'rtinchi o'ringa tushib ketdi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2019- yining mos davriga nisbatan **71** davlatdan **54** davlatga kamaydi.



**QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA  
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI  
(yanvar-dekabr)**

| Davlatlar               | Ming. AQSH dollarari |          | O'sish sur'ati, % da |          | O'rni    |          |
|-------------------------|----------------------|----------|----------------------|----------|----------|----------|
|                         | 2019- y.             | 2020- y. | 2019- y.             | 2020- y. | 2019- y. | 2020- y. |
| Eron                    | 66 399,9             | 35 231,6 | 4,4 m.               | 53,1     | 1        | 1        |
| Rossiya Federatsiyasi   | 37 480,9             | 30 893,4 | 103,8                | 82,4     | 5        | 2        |
| Qozog'iston             | 44 114,4             | 30 822,8 | 150,3                | 69,9     | 4        | 3        |
| Turkiya                 | 61 906,6             | 27 130,6 | 2,1 m.               | 43,8     | 2        | 4        |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 47 442,8             | 17 549,8 | 72,1                 | 37,0     | 3        | 5        |
| Qirg'iz Respublikasi    | 10 583,4             | 10 196,6 | 4,1 m.               | 96,3     | 10       | 6        |
| Afg'oniston             | 29 615,2             | 8 601,3  | 3,3 m.               | 29,0     | 6        | 7        |
| Pokiston                | 15 877,4             | 8 501,2  | 2,8 m.               | 53,5     | 8        | 8        |
| Indoneziya              | 14 996,9             | 5 997,3  | 50,8                 | 40,0     | 9        | 9        |
| Tojikiston              | 18 381,9             | 4 569,3  | 58,5                 | 24,9     | 7        | 10       |
| Turkmaniston            | 731,4                | 3 236,9  | 153,5                | 4,4 m.   | 19       | 11       |
| Hindiston               | 400,7                | 2 516,1  | 160,7                | 6,3 m.   | 23       | 12       |
| Ukraina                 | 4 359,4              | 2 378,3  | 3,9 p.               | 54,6     | 11       | 13       |
| Singapur                | 1 673,2              | 1 550,4  | 72,3                 | 92,7     | 13       | 14       |
| Chexiya                 | 1 563,5              | 1 129,2  | 3,5 m.               | 72,2     | 14       | 15       |
| Moldova                 | 1 098,9              | 1 042,0  | 170,3                | 94,8     | 17       | 16       |
| Misr                    | 56,0                 | 1 010,8  | 18,2                 | 18 p.    | 30       | 17       |
| Yaponiya                | 46,9                 | 719,5    | 129,6                | 15,0 m.  | 31       | 18       |
| Polsha                  | 984,4                | 577,9    | 146,2                | 58,7     | 18       | 19       |
| Malayziya               | 2 497,5              | 433,0    | 1118 m.              | 17,3     | 12       | 20       |

